



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

22. Romer P.M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71–S102.
23. Solow R.M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
24. Stiglitz J.E. (1998). The role of government in economic development. In M. Bruno & B. Pleskovic (Eds.), *Annual World Bank Conference on Development Economics 1996* (pp. 11–23). World Bank;
25. Ўзбекистонда асосий капиталга киритилган инвестициялар 10,5 фоизга ўсиб, 2025-йилда рекорд даражадаги 591,1 трлн сўмга етди — INVEXI: Стратегик ва Сунъий Интеллект бошқаруви бўйича маслаҳатлар| Инвестицион консалтинг | Ўзбекистон ва МДХ (<https://invexi.org/uz>)

UDK:336.02

**“O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI TUSHUMLARINING
EKONOMETRIK TAHLILI”**

**“ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОХОДОВ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ В
УЗБЕКИСТАНЕ”**

**“ECONOMETRIC ANALYSIS OF INSURANCE COMPANY REVENUES IN
UZBEKISTAN”**

Bekberganova Mohira Ravshonbekovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish
kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida o‘z xizmatlarini taklif etuvchilar ya’ni sug‘urta kompaniyalarining daromadlari va ularga ta’sir etuvchi omillar asosidagi ekonometrik tahlili berilgan. Shu bilan birgalikda sug‘urta tushumlarini ekonometrik modellashirish borasida xorijiy tadqiqotchi olimlarning ilmiy maqolalari o‘rganilgan va sug‘urta sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar borasida tadqiqotchilarning fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, YaIM, moliyaviy savodxonlik, foiz stavkasi, inflyatsiya, aholi daromad, korrelyatsion tahlil, regression tahlil, sug‘urta tushumlari

В статье проводится эконометрический анализ доходов страховых компаний, предоставляющих свои услуги на страховом рынке Узбекистана, на основе факторов, определяющих эти доходы. Кроме того, рассмотрены труды зарубежных исследователей, посвященные эконометрическому моделированию страховых поступлений, и проанализированы взгляды ученых на факторы, способствующие развитию страховой сферы

Ключевые слова: страховой рынок, ВВП, финансовая грамотность, процентная ставка, инфляция, доходы населения, корреляционный анализ, регрессионный анализ, страховые выплаты

This paper provides an econometric analysis of the revenues of insurance companies operating in the insurance market of Uzbekistan, along with the factors influencing them. Furthermore, it examines the scientific literature of foreign researchers on the econometric modeling of insurance receipts and analyzes various perspectives on the determinants of insurance industry development.

Keywords: insurance market, GDP, financial literacy, interest rate, inflation, population income, correlation analysis, regression analysis, insurance proceeds

Sug‘urta bozorining rivojlanishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va moliyaviy xavfsizlikni oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Sug‘urta bozoridagi iqtisodiy faollikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri esa sug‘urta kompaniyalari tomonidan yig‘iladigan sug‘urta mukofotlari hajmi, ya’ni sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta tushumlari bo‘lib, ularning dinamikasini tahlil qilish va prognozlash sug‘urta tizimini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish uchun zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda sug‘urta tushumlarini shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularning o‘zaro ta’sirini baholash dolzarb masala bo‘lib, bu sug‘urta bozorini tartibga solish va rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Ekonometrik modellashirish usullaridan foydalanish orqali sug‘urta tushumlariga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiktisodiy omillarni aniqlash, ularning nisbiy ahamiyatini baholash hamda kelajakdagi o‘zgarishlarni prognozlash mumkin.

Sug‘urta tushumlarining shakllanishi murakkab iqtisodiy tabiatga ega bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakatdagi iqtisodiy o‘rta sur‘atlari bilan korrelyatsiya qilinadi. Xususan, YaIM sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni belgilovchi eng universal indikator hisoblanadi. YaIMning o‘rta tadbirkorlik subyektlari va aholining to‘lov qobiliyati oshishiga, bu esa o‘z navbatida ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turlariga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keladi.

Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar sug‘urta tushumlarining muhim drayveri hisoblanadi. Investitsion faollik yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi, ko‘chmas mulk va texnologik infratuzilmaning kengayishini anglatadi, bu esa ushbu aktivlarni sug‘urtalash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ekonometrik nuqtai nazardan, investitsiyalar va sug‘urta mukofotlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘pincha multiplikativ xarakterga ega bo‘ladi.

Ekonometrik modelning samaradorligi unga kiritilgan omillarning naqadar asosli tanlanganligiga bog‘liq. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar sug‘urta bozorining "iste’mol savatidagi" o‘rta belgilaydi. Daromadlar darajasi oshgan sari, aholi o‘z aktivlarini (uy-joy, transport, salomatlik) sug‘urta himoyasiga olishga ko‘proq moyil bo‘ladi. Aksincha, ishsizlik darajasi sug‘urta tushumlariga teskari (negativ) ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib, u nafaqat aholi daromadlarini kamaytiradi, balki jamiyatda kelajakka bo‘lgan ishonchsizlikni oshirib, sug‘urta kabi uzoq muddatli moliyaviy instrumentlardan voz kechishga sabab bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda sug‘urta tushumlarini tahlil qilish va prognozlashirishda turli ekonometrik yondashuvlardan keng foydalanilgan. Ular o‘z ishlarida sug‘urta daromadlari dinamikasini aniqlash maqsadida vaqt qatorlari (time series) modellari, hududiy kesimdagi panel ma’lumotlar (panel data) asosida qurilgan tizimli tahlillar hamda sug‘urta faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy va institutsional omillarni o‘z ichiga olgan kompleks ekonometrik modellarni ishlab chiqishgan.

Sug‘urta tushumlarini modellashirish borasida oldingi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganishda, avvalo, aslida qaysi tadqiqotlarda qanday omillar tanlab olinganini tahlil qilishimiz zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompaniya o‘lchami, iqtisodiy o‘rta, aholi soni, siyosiy barqarorlik, inflyatsiya va risklarni boshqarish amaliyotlari sug‘urta tushumlari va rentabelligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, serbiyalik olimlar Jeljko Voyinovich, Sunchitsa Milutinovich, Dario Sertich va Boyan Lekovichning “Serbiya sug‘urta sanoatida barqaror foydalilik omillari: panel ma’lumotlar tahlili” [1] maqolasida 2008–2019-yillar oralig‘ida Serbiya sug‘urta kompaniyalari foydalilik darajasiga ta’sir etuvchi mikroiktisodiy, makroiqtisodiy va institutsional omillarni aniqlangan. Tadqiqotda 18 ta sug‘urta kompaniyasining balanslangan panel ma’lumotlari tahlil qilinib, oddiy eng kichik kvadratlar usuli, aralash effektlilik (panel modeli) va GMM (Generalized Method of Moments) modellari qo‘llangan. Natijalarga ko‘ra, kompaniya hajmi, YaIM o‘rta, aholining ko‘payishi va siyosiy barqarorlik rentabelliga ta’sir etuvchi ijobiy omillar sifatida namoyon bo‘lgan. Aksincha, haddan tashqari risk olish (sug‘urta kompaniyasining to‘lov qobiliyatidan ortiq hajmdagi sug‘urta risklarini o‘ziga olish) va inflyatsiya foydalilikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotdagi modelda o‘rtacha ish haqi va umr davomiyligi esa statistik ahamiyatga ega emas, deb topilgan.

1-jadvalda tasvirlangan birinchi modelda (Model 1) sug‘urta tushumlari va unga ta’sir etuvchi omillar sifatida YaIM, ishsizlik darajasi, aholi soni, o‘rtacha oylik ish haqi, asosiy kapitalga kiritilgan

investitsiyalar, aholi jon boshiga daromad, inflyatsiya, qayta moliyalash stavkasi hamda moliyaviy savodxonlik darajasi ko‘rsatkichlari tanlab olindi. Bu erda erksiz o‘zgaruvchi (y) sifatida yalpi sug‘urta tushumning natural logarifm shakli olingan. Bu modelga erkli o‘zgaruvchilar sifatida oldingi boblardagi tahlillarga asoslangan holda ta’sir etuvchi omillar deb hisoblangan omillar kiritilgan. Bu omillar quyidagilar: YaIM(GDP), ishsizlik darajasi(unemployment), aholi jon boshiga daromad(incomePC), aholi soni(population), o‘rtacha oylik ish haqi(wage), asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya(investment), inflyatsiya(inflation), qayta moliyalash stavkasi(interestrate), moliyaviy savodxonlik darajasi(financialliteracy) ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Model sifatini tekshiruvchi statistik test, xususan, model koeffitsiyentlarining ahamiyatliligini tekshiruvchi Student testiga ko‘ra, modeldagi koeffitsiyentlarning deyarli barchasi statistik ahamiyatga ega emas. Modeldagi koeffitsiyentlarining deyarli barchasi statistik ahamiyatga ega emasligi sabab, qolgan sifat tekshiruvlari amalga oshirilmadi. Bunga asosan quyidagilar sabab bo‘ladi:

- modelga barcha iqtisodiy omillarni bir vaqtda kiritganingizda, bu o‘zgaruvchilar bir-biri bilan kuchli bog‘langan bo‘ladi. Modelga barcha mustaqil o‘zgaruvchilarning birgalikda kiritilishi multikolleniarlik effektini keltirib chiqardi. Natijada, regressiya koeffitsiyentlarining standart xatoliklari ortib, ularning statistik ahamiyatliligi (t-statistika) pasayishiga olib keldi. Bu holat o‘zgaruvchilarning natijaviy ko‘rsatkichga bo‘lgan xususiy ta’sirini ajratib ko‘rsatish imkonini bermaydi;

- kuzatuvlar sonining cheklanganligi (n=24) sharoitida modelga ko‘p sonli ekzogen o‘zgaruvchilarni kiritish erkinlik darajasining (degrees of freedom) keskin kamayishiga olib keladi. Bu esa modelning prognoz qilish quvvatini (statistical power) pasaytiradi va parametrlarning ishonchlilik darajasini kamaytiradi.

1-jadval

Sug‘urta tushumlari va unga ta’sir etuvchi omillarning ko‘p omili regressiya modellari [2]

	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
VARIABLES	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4	Model 5
GDP	0.00000 (0.00000)				
unemployment	-0.09792** (0.04433)		-0.26753*** (0.07858)		
incomePC	0.00011 (0.00007)		0.00023*** (0.00002)		
population	0.00020 (0.00013)			0.00053*** (0.00001)	
wage	-0.00000 (0.00000)				0.00000*** (0.00000)
investment	0.00000 (0.00000)				
inflation	-0.00435 (0.00871)				
interestrate	0.01392 (0.02263)				-0.02942** (0.01163)
financialliteracy	0.08751* (0.04222)				0.14032*** (0.01094)
ln_GDP		0.46497*** (0.11196)			
ln_investment		0.66643*** (0.09853)			
Constant	4.59073	0.61769	12.98346***	-3.16021***	9.21610

	(2.94842)	(0.36721)	(0.56369)	(0.33929)	(0.38034)
				0	
Observations	24	24	24	24	24
R-squared	0.99721	0.99236	0.89102	0.99015	0.99162

Standard errors in parentheses

*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1

Barcha omillarni qamrab olgan modelda R^2 ko'rsatkichining haddan tashqari yuqori bo'lishi (0.99) va koeffitsiyentlarning ahamiyatsizligi modelning overfitting (o'ta moslashuv) holatiga tushganidan dalolat beradi. Shuning uchun, modelning spetsifikatsiyasini optimallashtirish va xususiy bog'liqliklarni aniqlash maqsadida o'zgaruvchilar guruhlariga ajratilgan holda (2 ta erkli o'zgaruvchi formatida) qayta baholandi.

Dastlabki bosqichda barcha makroiqtisodiy omillar bitta ko'p omilni regressiya modeliga kiritildi. Biroq, argumentlar o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya (multikolliniarlik) va tanlanma hajmining kichikligi sababli parametrlarning statistik ahamiyati past bo'lib qoldi. Ushbu muammoni bartaraf etish hamda har bir omilning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini aniqroq baholash maqsadida, tadqiqotda asta-sekinlik bilan kiritish (stepwise approach) yoki o'zgaruvchilarni juftlik holida tahlil qilish usuli qo'llanildi. Bu modelning barqarorligini ta'minlash va mantiqiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tadqiqotda o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichga makroiqtisodiy va demografik omillarning ta'siri 4ta turli spetsifikatsiyadagi modellar yordamida baholangan. Barcha modellarda kuzatuvlar soni $n=24$ ni tashkil etadi. Modellarining determinatsiya koeffitsiyentlari (R^2) 0.89 va 0.99 oralig'ida bo'lib, bu tanlangan erkli o'zgaruvchilar natijaviy ko'rsatkichdagi variatsiyani deyarli to'liq tushuntirib berishini anglatadi.

Ushbu modelda YaIM va investitsiyalarning logarifmik ko'rinishidan foydalanilgan. Modelda erksiz o'zgaruvchi y (yalpi sug'urta tushumi)ning ham natural logarifm shaklidan foydalanilgan. $\ln_GDP$ (0.46) va $\ln_investment$ (0.66) koeffitsiyentlari 1% lik ishonchlilik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli. Investitsiyalar hajmining 1% ga ortishi natijaviy ko'rsatkichning o'rtacha 0.66% ga, YaIMning 1% ga ortishi esa 0.46% ga ko'payishiga olib keladi. Bu investitsiya omilining YaIMga nisbatan yuqoriroq elastiklikka ega ekanligini ko'rsatadi. Mehnat bozori va daromadlar ta'siriga ko'ra esa ishsizlik darajasi (unemployment) manfiy (-0.26), aholi jon boshiga daromad (incomePC) esa musbat (0.0002) ta'sirga ega ($p < 0.01$). Ishsizlik darajasining ortishi iqtisodiy faollikni pasaytiruvchi muhim to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Daromadlar darajasi esa statistik ahamiyatli bo'lsa-da, uning mutlaq qiymatdagi ta'sir koeffitsiyenti nisbatan kichik bo'ldi. Demografik omil tahliliga ko'ra, aholi soni (population) koeffitsiyenti 0.00053 ga teng va 1% darajada ahamiyatli bo'lib, aholi sonining o'sishi natijaviy ko'rsatkich bilan kuchli to'g'ri korrelyatsiyaga ega. Bu iqtisodiy o'sishda demografik dividend yoki iste'mol bozorining kengayishi muhim rol o'ynashidan dalolat beradi. Moliyaviy savodxonlik (financialliteracy) eng yuqori musbat koeffitsiyentga (0.14) ega. foiz stavkasi (interestrate) esa kutilganidek manfiy (-0.029) ta'sir ko'rsatgan. Moliyaviy savodxonlik darajasi oshishi natijaviy ko'rsatkichga eng kuchli ijobiy turtki beruvchi omil sifatida aniqlandi. Foiz stavkalarining ko'tarilishi esa investitsion va iste'mol jozibadorligini kamaytirish orqali salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, olingan natijalarga ko'ra moliyaviy savodxonlik va investitsiyalar hajmi ijobiy o'sishning asosiy drayverlari hisoblanadi. Ishsizlik va yuqori foiz stavkalari esa yalpi sug'urta tushumiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. O'zgaruvchilarning alohida va juftlik ko'rinishida kiritilishi ularning statistik ahamiyatini (t-statistika) oshirib, multikolliniarlik muammosini chetlab o'tishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Christophersen C. et al. Insurance and the macroeconomic environment //EIOPA-Financial Stability Report. – 2014. – C. 44-55
2. Burić M. N. et al. Impact of economic factors on life insurance development in Western Balkan Countries //Zbornik radova Ekonomskog fakulteta u Rijeci: časopis za ekonomsku teoriju i praksu. – 2017. – T. 35. – №. 2. – C. 331-352

3. Chang T. et al. Does globalization affect the insurance markets? Bootstrap panel Granger causality test //Economic Modelling. – 2013. – T. 33. – С. 254-260
4. Pradhan R. P. et al. Insurance market density and economic growth in Eurozone countries: the granger causality approach //Financial Innovation. – 2017. – T. 3. – №. 1. – С. 1-24
5. Lee C. C., Chiu Y. B. Globalization and insurance activity: Evidence on the industrial and emerging countries //The North American Journal of Economics and Finance. – 2016. – T. 36. – С. 328-349
6. Dash S. et al. Impact of banking sector development on insurance market-growth nexus: the study of Eurozone countries //Empirica. – 2020. – T. 47. – С. 205-243
7. Dalkilic N., Kirkbesoglu E. The role of financial literacy on the development of insurance awareness //International Journal of Economics and Finance. – 2015. – T. 8. – №. 8. – С. 272-280
- Volosovych S. et al. Transformation of insurance technologies in the context of a pandemic //Insurance Markets and Companies. – 2021. – T. 12. – №. 1. – С. 1-13
9. Liam J.A.Lenten. Time series analysis of demand for life insurance companies in Australia:An unobserved components Approach.2006
10. Željko Vojinović, Sunčica Milutinović, Dario Sertić and Bojan Leković. “Determinants of Sustainable Profitability of the Serbian Insurance Industry: Panel Data Investigation”, J: Sustainability 2022, 14, 5190

УДК:364

МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

IJTIMOIIY TA'MINOT TIZIMINI ZAMONAVIYLASHTIRISH

MODERNIZATION OF THE SOCIAL SECURITY SYSTEM

Рахимова Мадина Шухрат кизи

Университет «Турон» Кафедра «Экономика и экономика зарубежных стран»

исполняющая обязанности доцента,

ORCID: 0009-0003-7548-6228

Аннотация

В данной статье на основе комплексного научного подхода исследуются трансформационное развитие категории социальной защиты, её теоретические и методологические основы, а также современные эволюционные изменения. В ходе исследования проанализированы тенденции поэтапного перехода системы социальной защиты от традиционных форм к цифровизированной и интегрированной модели, раскрыта роль информационно-коммуникационных технологий и глубоко изучены институциональные реформы в данном процессе. Наряду с этим рассмотрены региональные особенности системы социальной защиты, её эффективность в разрезе территорий, а также факторы, влияющие на качество социальных услуг. В условиях глобальных экономических изменений, процессов урбанизации, демографических сдвигов и развития рынка труда обоснована возрастающая роль системы социальной защиты в снижении социального неравенства, повышении благосостояния населения и обеспечении социально-экономической стабильности. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование системы социальной защиты, повышение её эффективности и обеспечение устойчивого развития.

Ключевые слова: социальная защита, трансформационное развитие, цифровизация, социальная политика, благосостояние, бедность, социальная система.